

Turabova Sevara Kattaqulovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

«Ijtimoiy fanlar» kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)

E-mail: turobova.sevara@mail.ru

[ORCID - 0000-0001-9028-6943](https://orcid.org/0000-0001-9028-6943)

UDK:1:111:378 (575.1)

ARGUMENTATIV KOMPETENTLIK – TALABA-YOSHLARDA

RATSIONAL BAHS YURITISH MALAKASINI

TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MODELII

Annotatsiya: Maqolada talaba-yoshlarda ratsional bahs yuritish malakasini takomillashtirishda argumentativ kompetentlikning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Argumentativ kompetensiyaning mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va uni rivojlantirish mezonlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, kommunikativ, motivatsion, ijtimoiy, lingvistik, intellektual va refleksiv komponentlar asosida talabalarda bahs madaniyatini shakllantirishning innovatsion modeli ishlab chiqilgan. Maqolada argumentativ muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategiyalar va amaliy tavsiyalar bayon qilinib, ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari argumentativ kompetentlik talabalarining tanqidiy fikrlashi, dalillash madaniyati va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning muhim omili ekanini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: argumentativ kompetentlik, argumentatsiya, ratsional bahs, bahs madaniyati, talaba-yoshlar, tanqidiy fikrlash, dalillash, kommunikativ kompetensiya, refleksiv yondashuv, innovatsion ta’lim

Турабова Севара Каттакуловна

доцент кафедры «Социальные науки» Термезского университета экономики

и сервиса, доктор философских наук (DSc)

E-mail: turobova.sevara@mail.ru

ORCID: 0000-0001-9028-6943

АРГУМЕНТАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ – ИННОВАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ РАЦИОНАЛЬНОГО ВЕДЕНИЯ ДИСКУССИИ У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ

Аннотация: В статье проанализированы теоретико-методологические основы аргументативной компетентности в совершенствовании навыков рационального ведения дискуссии у студенческой молодежи. Уточнены сущность аргументативной компетенции, ее структурное строение и критерии развития. Кроме того, на основе коммуникативного, мотивационного, социального, лингвистического, интеллектуального и рефлексивного компонентов разработана инновационная модель формирования культуры дискуссии у студентов. В статье изложены стратегии и практические рекомендации, направленные на развитие аргументативной коммуникации, а также раскрыто их значение в повышении эффективности образовательного процесса. Результаты исследования показывают, что аргументативная компетентность является важным фактором развития критического мышления, культуры аргументации и профессиональной подготовки студентов.

Ключевые слова: аргументативная компетентность, аргументация, рациональная дискуссия, культура дискуссии, студенческая молодежь, критическое мышление, доказательная аргументация, коммуникативная компетенция, рефлексивный подход, инновационное образование.

Turabova Sevara Kattaqulovna

Associate Professor, Department of Social Sciences,

Termez University of Economics and Service,

Doctor of Philosophy (DSc)

E-mail: turobova.sevara@mail.ru

ORCID: 0000-0001-9028-6943

ARGUMENTATIVE COMPETENCE AS AN INNOVATIVE MODEL FOR IMPROVING THE SKILLS OF RATIONAL DISCUSSION AMONG STUDENTS AND YOUNG PEOPLE

Abstract: The article analyzes the theoretical and methodological foundations of argumentative competence in improving the skills of rational discussion among students and young people. The essence of argumentative competence, its structural composition, and the criteria for its development are clarified. In addition, an innovative model for developing students' discussion culture has been designed on the basis of communicative, motivational, social, linguistic, intellectual, and reflexive components. The article also presents strategies and practical recommendations aimed at fostering argumentative communication and highlights their importance in increasing the effectiveness of the educational process. The findings show that argumentative competence is an important factor in developing students' critical thinking, argumentation culture, and professional training.

Keywords: argumentative competence, argumentation, rational discussion, discussion culture, students and youth, critical thinking, evidence-based reasoning, communicative competence, reflexive approach, innovative education.

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning ta'lim tizimi qarshisida qo'yayotgan talablar bilan bog'liqlikda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarda kompetent yondashuv ta'lim mazmunini o'zgartirishning yangi bosqichi sifatida ko'rib chiqilgan. Ana shu pozitsiyadan kelib chiqib ko'plab tadqiqotlarda [1, 2, 3, 4, 5]. kompetensiya ijodiy va samarali faoliyat uchun muhim o'zaro aloqador shaxsiy sifatlar kompleksi, kompetentlik esa, ma'lum sohaga tegishli muammoni hal etishga imkon beruvchi zaruriy kompetensiyalarni egallaganlik darajasi sifatida talqin etilgan.

Yoshlarda argumentativ kompetensiya vositasida bahs yuritish madaniyatini rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali jihatlarga ega bo'lib, argumentativ kompetentlikning ustuvor jihatlari, tarkibiy qismlari va uni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Muloqotning mazkur

shakli muzokaralarda, bahs-munozara va debatlarida muhim bo'lib, bunda turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va taqdim etish katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili.

Avvalo shuni aytish kerakki, "*argumentativ kompetensiya*" paradigmasining asoschisi Arastu hisoblanib, u o'z asarlarida "argumentatsiya" tushunchasini birinchi bo'lib ajratib ko'rsatgan. Afsuski, keyinchalik argumentatsiya noo'rin unutildi va nisbatan yaqinda XX asrning oxirlariga kelib ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida demokratizatsiya g'oyasi keng tarqala boshlagach argumentatsiya fenomeni rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimida asosiy tarkibiy komponentlaridan biriga aylandi, shunga muvofiq tarzda talabalarni dalillash ko'nikmalariga o'rgatish kommunikatsiya modelidagi muhim tarkibiy qismga aylandi. Dalillash nazariyasiga doir ko'plab ilmiy va o'quv manbalarida keltirilgan "*argumentativ kompetensiya*" tushunchasiga berilgan ta'riflar turli xil bo'lib, Amsterdam maktabi vakillari Rob Grootendorst, Frans X. van Yeyemeren, V.P. Moskvina argumentativ kompetensiyani "bahslarni izchil tartibga solish, ularni ma'lum maqsadlarga bog'lash va ushbu maqsadlar bilan bog'liq bo'lgan me'yorlarga amal qilish qobiliyati" [7], "shaxsning argumentativ ko'nikmasini "bayonotlarni asoslash yoki rad etish qobiliyati" [8] sifatida izohlashar ekan, bunda argumentatsiya texnikasini, manipulyatsiya tizimi va ularni zararsizlantirish usullarini bilishi nazarda tutishadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Argumentativ kompetentlikning talaba-yoshlarda ratsional bahs yuritish malakasini takomillashtirishdagi rolga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, analiz va sintez kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Bizningcha, argumentatsiya – o'z pozitsiyasining to'g'riligini asoslash orqali adresatni o'ziga ishontirishni maqsad qilib olgan subyektning kommunikativ faolligi, *argumentativ kompetensiya* - *tezisni asoslash va dalillash usullaridan to'g'ri foydalangan holda retsipyentni voqea hodisaning muayyan jihatlariga ishontira olish qobiliyati degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi*[3].

Talabalarda argumentativ kompetentlikni rivojlantirishga oid o'quv dasturini yaratishga yo'naltirilgan didaktik yordamni shakllantirish uchun uni ishlab chiqish mezonlarini aniqlab olish kerak. Shu maqsadda argumentativ kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi ko'rib chiqiladi. Biz, ilmiy manbalarni analiz qilganimizda, argumentativ kompetentlikni rivojlantirish muammosini to'liq tadqiq etgan mahalliy ilmiy ishni uchratmadik, shu bois turli xorijiy mualliflarning dalillashga oid qarashlarini o'rganib argumentativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini quyidagicha aniqlashtirib olishga harakat qildik: *kommunikativ qism*: masalani hal qilishda muloqotning notiqlik asoslari, o'zaro hamkorlik tartib qoidalariga oid bilimlarni qamraydi; *motivatsion qism*: munozarada ishtirok etish asosida dunyoqarashni kengaytirish, muloqotga kirishish orqali o'z-o'zini takomillashtirish zarurati. Bahsda faol muloqot qilish ehtiyojni tashkil etadi; *ijtimoiy qism*: o'zini jamoada tartib doirasida tuta bilish, kishilar bilan do'stona munosabatga kirisha olish, o'zgalarning farqli bo'lgan qarashlarni ham qabul qila olish malakasini anglatadi; shu bilan birgalikda barcha uchun birdek qabul qilingan axloqiy me'yorlarga mos bo'lgan optimal echimni tanlash malakasi; *lingvistik qism*: o'z maqsadga erishish uchun til bilish va dalillash qoidalarini etarli darajada o'zlashtirganlikni o'z ichiga oladi; *intellektual qism*: munozara jarayonida ma'lum bir masalalarni hal qilishda zamonaviy AKT texnologiyalari vositasida ma'lumotlarni qidirish, axborotlarni qayta ishlash va o'zgarishlarga adaptatsion javoblar berish. Bahs-munozarada ishtirok etish paytida, mantiqqa asoslangan fikrlarni ishonchli dalillar bilan ta'minlashda intellektual qism muhimdir; *refleksiv qism*: o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tartibga solish, vaziyatga qarab o'z xatti-harakatlarini moslashtirish, o'z rivojlanish darajasini tushunish va anglay olish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi[2].

Argumentativ kompetentlikning barcha mazkur tarkibiy komponentlari o'zaro bog'liqdir va ularni shakllantirishni kompleks tarzda amalga oshirish muhim hisoblanadi. Tarkibdagi har bir komponentning shakllantirilishiga talabanning argumentativ kompetentligini rivojlanish samaradorligi bog'liq bo'ladi. Argumentativ kompetensiyaning tuzilma tarkibiga asoslangan holda uning

navbatdagi mezonlari aniqlandi: *kommunikativ mezon*: ishbilarmonlik muloqotining muhim qonun qoidalaridan boxabar bo'lgan holda, guruhda muloqot yuritish tajribasiga egalik; *lingvistik mezon*: argumentativ muloqot doirasidagi bazaviy nutqqa ega bo'lish, stilistika va grammatika qoidalarini bilish, tushunchalarning mantiqiy mazmun mohiyatini to'g'ri anglash; *intellektual mezon*: bahsli masala doirasidagi zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lish va muammoning mohiyatini anglash.

Muloqotning mazkur shakli muzokara va ilmiy bahs-munozaralarda muhimligi, bunda turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va taqdim etish katta ahamiyat kasb etishini inobatga olib talabalarga argumentativ muloqot qobiliyatini oshirishning quyidagi asosiy strategiyalarini taklif etdik: 1. Tadqiqot mavzusini chuqur o'rganing. Chunki, mavzu bo'yicha puxta bilimga ega bo'lish zarur. Faktlar, statistik ma'lumotlar va tegishli axborotni to'plash uchun keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazish nafaqat ishonchingizni oshiradi, balki dalillaringizni yanada ishonarliroq qiladi. 2. *Faol tinglashni (active listening) o'rganing*. Samarali dalillash faqat gapirish emas, balki tinglash ham demakdir. Boshqalar aytayotgan gaplarni diqqat bilan tinglash ularning nuqtai nazarini tushunishga va asosliroq javob qaytarishga yordam beradi. 3. *Xotirjamlik va o'zaro hurmatni saqlang*. Bahs-munozaralar paytida o'zingizni bosiq tutishing, hissiy zo'riqishdan saqlaning, chunki emotsional zo'riqish mulohazakorlikni xiralashtirishi va samarali muloqotga xalaqit beradi. Sizning fikringizga zid bo'lsa ham, turli qarashlarni hurmat qila biling. 4. Nutqingizni aniq va lo'nda qilning. Fikrlaringizni ravshan ifoda etish, haddan tashqari murakkab ifodalardan qochish va muloqotdagi aniqlik sizning dalillaringizning tushunilishi va jiddiy qabul qilinishini ta'minlaydi. 5. *Dalillaringizni mantiqan tizimlashtiring*. O'z dalillaringizni izchil va mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etishingiz tinglovchilaringizga mulohazalaringizni kuzatib borishni va ularni tushunishni osonlashtiradi. 6. *Tanqidiy fikrlashdan foydalaning*. Dalillarni har tomonlama analiz qiling va baholang. Farazlarni shubha ostiga oling va ehtimoliy qarshi dalillarni ko'rib chiqing. Bunday tanqidiy yondashuv sizning pozitsiyangizni mustahkamlaydi. 7. *Ishontirish usullaridan foydalaning*.

Aristotelning etos, pafos va logos kabi ritorik strategiyalarni qo'llang, bunda: etos (kishining nutq madaniyati orqali uning maqsadga intilishi xarakterini aks ettirish usuli), pafos (tinglovchilarga hissiy ta'sir ko'rsatuvchi barcha dalillash unsurlari) va logos (muallifning mantiqiy mulohaza yuritish tizimi). Bu usullar dalillaringizning ishonchliligini oshiradi. 8. *Bahsli muloqotdan so'ng o'z fikr-mulohazalaringizni qayta tahlil qilishga o'rganing.* Nima yaxshi ishlagani va nimalarni yaxshilash kerakligi haqida o'ylab ko'ring. Doimiy o'rganish va tahlil qilish argumentativ muloqot madaniyatini samarali egallashning kalitidir [5].

Talabalarga argumentativ muloqotda samarali ishtirok etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ham taklif etdik: 1. *Bahsni hamma uchun umumiy bo'lgan nuqtadan, ya'ni muhokamadagi kelishuv mavjud bo'lgan nuqtalarni e'tirof etish va tan olishdan boshlang.* Buning ta'sirida hamkorlik ruhi yaratiladi va kelishmovchiliklarni bartaraf etish osonlashadi. 2. *Bahsda misollar va dalillardan foydalaning.* Fikrlaringizni aniq misollar, dalillar va ma'lumotlar bilan asoslang. Bu sizning fikrlaringizni tasdiqlanishi va argumentlaringizni yanada ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. 3. *Turli nuqtai nazarlarga ochiq bo'ling.* Turli qarashlarga e'tiborli bo'lishdan, o'rni kelsa qabul qilishdan chekinmang. Bunday ochiqlik muhokamani boyitibgina qolmay, turli fikrlarni hisobga olishga tayyorligingizni ham ko'rsatadi. 4. *Mantiqiy xatolardan saqlaning.* Keng tarqalgan mantiqiy xatolarni yodda tuting va ulardan qochishga harakat qiling. Xatolar sizning pozitsiyangizni zaiflashtiradi va sizga bo'lgan ishonchni yo'qotishi mumkin. 5. *Bahs jarayonida noaniqliklarni oydinlashtirish va mavzuni chuqurroq o'rganish uchun savollardan foydalaning.* Savollar suhbatni yo'naltirishi va yangi g'oyalarni yuzaga chiqarishi ham mumkin. 6. *Tinglovchilaringizga moslashing:* muloqot uslubingizni auditoriyangizga moslashtiring. Ularning kelib chiqishi, qadriyatlari va e'tiqodlarini tushunish dalillaringizni yanada samaraliroq shakllantirishga yordam beradi. 7. *Empatiyangizni ishga soling.* Boshqa insonning nuqtai nazarini tushunishga harakat qiling. Empatiya muammolarni hal qilish va ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi. 8. *Muammoning echimiga e'tibor qarating.* Muammolarni shunchaki ko'rsatish o'rniga unga echimlaringizni taklif qiling.

Bunday konstruktiv yondashuv ijobiy natijalarga olib kelishi ehtimoli yuqori. 9. *Sizni qiziqtirgan tadqiqot mavzusi bilan bog'liq joriy voqealar va hodisalardan boxabar bo'ling.* Axborotdan boxabarlik dalillaringizga teranlik qo'shadi. 10. *Muntazam ravishda o'z ustingizda ishleng.* Har qanday boshqa ko'nikma singari, argumentativ muloqot ham amaliyot bilan takomillashadi. Mahoratingizni oshirish uchun munozaralarda qatnashing, munozara forumlariga qo'shiling yoki nutq san'ati to'garaklarida ishtirok eting. Ushbu strategiyalar va maslahatlardan foydalanib, talabalar argumentativ muloqot qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilashi, muloqotni samaraliroq va dalillarini ishonarliroq qilishlari mumkin[6].

Xulosa.

Argumentativ kompetensiyaning rivojlantirish jarayoni shaxsning kognitiv, kommunikativ va refleksiv salohiyatlarini integratsiyalovchi kompleks tizim bo'lib, u talabaning kasbiy faoliyatda vujudga keladigan murakkab va ziddiyatli holatlarni tahliliy tafakkur, mantiqiy mushohada hamda konstruktiv qaror qabul qilish asosida hal etish layoqatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ushbu jarayon zamonaviy ta'limning metodologik asoslaridan biri sifatida talabaning kasbiy etuklik darajasini belgilovchi muhim epistemik omilga aylanadi. Ushbu kompetensiya nafaqat mantiqiy fikrlash va dalillash ko'nikmalarini, balki professional faoliyatda kerakli bo'lgan analitik yondashuvni ham rivojlantiradi. Bu yondashuv nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Брызгалова С.И., Ильина М.В., Ротенкова Т.Н. Педагогические условия формирования ключевых компетенций учащихся основной школы: Монография – Калининград: БФУ им. И.Канта, 2011. – 176 с.
2. Ильина М.В. Реализация компетентного подхода в работе с учебным текстом (из опыта преподавания курса «История западной России в основной школе) // Исследования Балтийского региона. Вестник Института Балтийского региона РГУ им. И. Канта. – 2010. — №1. – С. 149-156.

3. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 b.
4. Hayitov O., N.Umarova. Yoshlarda professional o'sishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari. – T.: "TURON-IQBOL", 2001. – 187 b. 205.
5. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: : Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 2016. – 362
6. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 2007. – 362 b. 211.
7. Уразова М.Б. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности: Дисс. ... док. пед. наук. – Т., 2015. – 287.
8. Речевые акты в аргументативных дискуссиях : Теорет. модел анализа дискус., направл. на разрешение конфликта мнений : Пер. с англ. / Франс Х. ван Еемеерен, Р. Гроотендорст. – СПб. : Б. и., 1994. – 238 с.
9. Москвин В. П. Аргументативная риторика : теоретический курс для филологов. – Ростов н/Д : Феникс, 2008. – С.5.
10. Турабова С. К. Возможности имплементации передового зарубежного опыта в научно-исследовательской деятельности студентов узбекистана. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(10), 2024. – С.240-244.
11. Kattaqulovna T. S. Traps and Manipulative (Speculative) Methods Used in Disputes. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 22, 2024. – P. 38-42.
12. Kattakulovna T. S. Moral choice under algorithmic predictability and the transformation of human autonomy in the digital society. In London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI) (Vol. 2, No. 1, 2025. – Pp. 719-722.